

YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI O'RGANISH

Xabibullaev S. X.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ., dotsent v.b.,

Chirchiq shahri, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada yosh futbolchilar texnik-taktik harakatlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari o'rganib chiqilgan. Toshkent viloyati "Futbol maktabi" hamda Toshkent viloyati Chirchiq shahri "Sport maktabi" 12-yoshli futbolchilarining musoboqadagi texnik-taktik harakatlarini o'rganish orqali jamoalarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasi baholandi va texnik-taktik tayyorgarliklarini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Yosh futbolchilar, jamoaviy, texnik- taktik harakatlar, samaradorlik, koeffitsient, tayyorgarlik, musobaqa, nuqsonlar, usullar.

STUDY OF TECHNICAL-TACTICAL MOVEMENT OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS

Khabibullaev S. X.

Chirchik State Pedagogical University, Associate Professor, etc.,

Chirchik city, Uzbekistan

Annotation: The article studies the qualitative and quantitative indicators of technical and tactical actions of young football players. Based on the study of technical and tactical actions of 12-year-old football players of the "Football School" of Tashkent Region and the "Sports School" of Tashkent Region, an assessment is made of the level of technical and tactical training of teams and

methodological recommendations are given for the development of technical and tactical training.

Key words: Young football players, team, technical and tactical actions, efficiency, coefficient, preparation, competition, shortcomings, methodology.

Dolzarbliqi. Hozirgi tez futbolda yuqori natijalariga erishish uchun hamma turdagi tayyorgarliklar muhimdir. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, jamoa muvaffaqiyatining hal qiluvchi omillaridan biri futbolchilarning yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgani deb yozishgan. Ayrim olimlar tadqiqotlariga ko'ra futbolda natijalarni hal qiluvchi omil texnik tayyorgarlik darajasini ta'kidlaganlar.

Futbol mashg'ulotlarida tayyorgarlik turlari ko'p. Lekin, ular ichida texnik tayyorgarlik alohida o'rinda turadi. Bu tayyorgarlik tanlangan sport turini yaxshi o'zlashtirish va g'alaba qozonishning asosi hisoblanadi. Texnik jihatdan yaxshi tayyorgarlikka ega yosh futbolchilarning yetishmasligi milliy terma jamoa zaxirasining rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir qiladi.

Futboldagi yakkama-yakka kurashlar sonining ko'payishi, ko'plab o'yinlar shiddat bilan o'tayotganini hisobga olsak, musobaqalardan olingan texnik-taktik harakatlarining hajmini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamon futbolchilarga yuqori darajadagi tayyorgarlik talablarni qo'yadi. Shu bois yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlaridagi sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlab, ularni rivojlantirish uchun metodik tavsiyalar berish hozirgi futbolning dolzarb vazifalaridan biridir.

Tadqiqotning maqsadi: Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini o'rganish orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlili qilish, pedagogik kuzatish, matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarliklarini tahlil qilish uchun 12-yoshli futbolchilarning rasmiy va norasmiy musobaqalardagi o'yinlarida

pedagogik kuzatishlar olib borildi. Bunda o'yin ko'rsatkichlarining hajmi va samaradorligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Texnik-taktik harakatlarning tahlillari 2025-yilda 12-yoshli futbolchilarning musobaqalaridagi o'yinlarida o'tkazildi. Toshkent viloyati "Futbol maktabi" hamda Toshkent viloyati Chirchiq shahri "Sport maktabi" futbol jamoalarining o'yinlari tahlil qilindi.

Pedagogik tajriba Toshkent viloyatidagi "Futbol" maktabida hamda Chirchiq shahridagi (BO'SM) sport maktabida shug'ullanuvchi 12-yoshli futbolchilarining maydondagi jamoaviy texnik–taktik harakatlari o'rganildi.

Pedagogik kuzatishlar davomida yosh futbolchilarning 10 ta o'yini nazorat qilinib TTH lari tahlil qilindi. Olingan natijalar 1-2-jadvallarda ko'rsatib o'tilgan.

Futbolchilarning o'yindagi texnik harakatlarning informatsion ko'rsatkichlaridan "to'p uzatish", "to'pni to'xtatish", "to'pni olib yurish", "to'pni olib qo'yish oyoq bilan", "raqibni aldab o'tish", "to'p uchun havoda kurash bosh bilan", "darbozaga zarba berish", "jarima to'pini tepish", "burchakdan to'pni o'yinnga kiritish", "yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish" kabi harakatlarini pedagogik jihatdan kuzatib borildi. Bu ko'rsatkichlarni soni musobaqalarda hisoblab borildi. Aniqlangan texnik-taqtik harakatlar miqdoridan kelib chiqib, ularning aniqligi bo'yicha foizlarda hisoblab chiqildi. O'rganilgan bu texnik harakatlarning miqdori futbolchilarning texnik qobiliyatining ishonchli ko'rsatkichlaridir.

Chirchiq sport maktabida shug'ullanivchi 12- yoshli futbolchilarning jamoaviy texnik-taktik harakatlarining tahlili quyidagicha. Yosh futbolchilar o'nta o'yinda o'rtacha 437 ta turli jamoaviy texnik-taktik harakatlarni amalga oshirishdi. Shulardan to'g'ri bajarilgan texnik-taktik harakatlar 308 tani tashkil qilgan bo'lsa, 129 ta texnik-taktik harakatlar noto'g'ri bajarilgan. Jami harakatlarning samaradorlik koeffitsient 70 % ni, nuqsonlar esa 30 % ni tashkil

etganligi aniqlandi. Yosh futbolchilar bajargan texnik-taktik harakatlari ichidan ko'p nuqsonlarga yo'l qo'ygan texnik usullarni aniqlab oldik. To'pni oldinga uzatishda 40 %, raqibni aldab o'tishda 72 %, to'pni olib qo'yish oyoq bilan 38 % , oyoqda zarba berishda 46 %, bosh bila zarba berish 50 %, jarima to'pini tepishda 67 %, burchakdan to'pni tepishda 33 %, yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritishda 31 % nuqsonlarga yo'l qo'yilganini aniqlab metodik tavsiyalar berdik.

1-jadval

Chirchiq sport maktabida shug'ullanivchi 12-yoshli futbolchilarning o'yin vaqtidagi jamoaviy texnik-taktik harakatlarining tahlili (X) n-10.

Jamo'a nomi	To'p uzatishlar			To'pni to'xtatish	To'pni olib yurish	Raqibni aldab o'tish	To'pni olib qo'yish		Zarba berish		Jarima to'pini	Burchak to'pini	Yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish	Jami TTH
	orqaga	yonga	oldinga				Oyoq bilan	Bosh bilan	Oyoq bilan	Bosh bilan				
To'g'ri bajarilgan harakatlar	30	42	56	61	37	5	18	28	6	2	1	4	18	308
Noto'g'ri bajarilgan harakatlar	3	13	38	21	5	13	11	6	5	2	2	2	8	129
Jami harakatlar	33	55	94	82	42	18	29	34	11	4	3	6	26	437
Samaradorlik koeffitsient %	91	76	60	74	88	28	62	82	54	50	33	67	69	70
Nuqsonlar	9	24	40	26	12	72	38	18	46	50	67	33	31	30

2-jadval

Toshkent viloyati "Futbol" maktabida shug'ullanivchi 12-yoshli futbolchilarning o'yin vaqtidagi jamoaviy texnik-taktik harakatlarining tahlili (X) n-10.

Jamo'a nomi	To'p uzatishlar			To'pni to'xtatish	To'pni olib yurish	Raqibni aldab o'tish	To'pni olib qo'yish		Zarba berish		Jarima to'pini	Burchak to'pini	Yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish	Jami TTH
	orqaga	yonga	oldinga				Oyoq bilan	Bosh bilan	Oyoq bilan	Bosh bilan				
To'g'ri bajarilgan harakatlar	14	33	60	31	28	17	17	8	3	1	2	4	15	233
Noto'g'ri bajarilgan harakatlar	1	9	54	13	5	15	7	21	11	1	7	5	14	163
Jami harakatlar	15	42	114	44	33	32	24	29	14	2	9	9	29	396
Samaradorlik koeffitsient %	93	79	53	70	85	53	71	28	21	50	22	44	52	59
Nuqsonlar	7	21	57	30	15	47	29	72	79	50	78	56	48	41

Toshkent viloyati "Futbol" maktabida shug'ullanivchi 12-yoshli futbolchilarning jamoaviy texnik-taktik harakatlarining tahlili quyidagicha. Yosh futbolchilar o'nta o'yinda o'rtacha 396 ta turli jamoaviy texnik-taktik

harakatlarni amalga oshirishdi. Shulardan to'g'ri bajarilgan texnik-taktik harakatlar 233 tani tashkil qilgan bo'lsa, 163 ta texnik-taktik harakatlar noto'g'ri bajarilgan. Jami harakatlarning samaradorlik koeffitsienti 59 % ni, nuqsonlar esa 41 % ni tashkil etganligi aniqlandi. Yosh futbolchilar texnik-taktik harakatlari ichidan ko'p nuqsonlarga yo'l qo'ygan texnik usullarni aniqlab oldik. To'pni oldinga uzatishda 57 %, raqibni aldab o'tishda 47 %, to'pni olib qo'yish (bosh bilan havoda kurash) da 72 % , oyoqda zarba berishda 79 %, jarima to'pini tepishda 78 %, burchakdan to'pni tepishda 56 %, yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritishda 48 % nuqsonlarga yo'l qo'yilganini aniqladik.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati Chirchiq sport maktabi va Toshkent viloyati "Futbol" maktabida shug'ullanuvchi 12-yoshli futbolchilarining texnik-taktik harakatlarida bir-biridan farqli jihatlari mavjud.

XULOSA

Toshkent viloyati Chirchiq sport maktabi va Toshkent viloyati "Futbol" maktabida shug'ullanuvchi 12-yoshli futbolchilarning musobaqalardagi texnik-taktik harakatlari samaradorligi tahlili shuni ko'rsatdiki, 12-yoshli Toshkent viloyati Chirchiq sport maktabi futbol jamoasi yosh futbolchilarining texnik-taktik tayyorgarligi darajasi Toshkent viloyati "Futbol" maktabi jamoasidan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

Toshkent viloyati Chirchiq sport maktabi futbol jamoasi yosh futbolchilarining mashg'ulotlarida texnik-taktik tayyorgarliklariga alohida e'tibor berishlari musobaqalarda aniqlandi. Toshkent viloyati "Futbol" maktabi futbol jamoasi yosh futbolchilarining musobaqalardagi o'yinlaridan shuni ko'rish mumkinki, texnik-taktik tayyorgarliklari Toshkent viloyati Chirchiq sport maktabi futbol jamoasi yosh futbolchilarining tayyorgarliklaridan past darajada ekanligi kuzatildi. Bu jamoa futbolchilarining texnik-taktik harakatlari zamon talablariga javob beradigan darajada emas. Lekin asosiy o'yin ko'rsatkichlari bo'yicha Toshkent viloyati "Futbol" maktabi yosh futbolchilari

Toshkent viloyati Chirchiq sport maktabi yosh futbolchilari bilan teng bo'lsada baribir ancha sustligi o'rganishlar davrida aniqlandi.

Natijada Toshkent viloyati Chirchiq sport maktabida shug'ullauvchi 12-yoshli futbolchilarni jamoaviy texnik-taktik harakatlarining samaradorligi 70% , Toshkent viloyati "Futbol" maktabida shug'ullauvchi 12-yoshli futbolchilarni jamoaviy texnik-taktik harakatlarining samaradorligi 59% ekanligi aniqlandi. Texnik-taktik tayyorgarlikni yuqori darajaga olib chiqish uchun metodik tavsiyalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma. T., O'zDJTI. 2011. – 38 b.

2. Artikov A.A., Alimjanov S.I., Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg'ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2014. – 96 b.

3. Bekturov O.Y. Yosh futbolchilarni texnik-taktik harakatlarini shakllantirish. O'quv- uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2012. - 30 - b.

4. Iseev Sh.T. Analiz atakuyuyx deystviy futbolistov vysokoy kvalifikasii //Fan-sportga. - Tashkent, 2004. - №1. - S. 45-47.

5. Nurimov.R.I, Akramov R.A , Iseyev Sh.T , Davletmurotov S.R. " Futbol nazariyasi va uslubiyati" Darslik 2018 yil,Ilmiy texnika axborot press nashriyoti, 315 b.

6. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik-taktik tayyorlash. O'quv qo'llanma.-T.: 2005.-72 b.

7. Xabibullaev S.X. Futbol va uni o'qitish metodikasi. Darslik. "Zebo print" nashriyoti. Toshkent, 2024.